

Oriental Journal of Education



ORIENTAL JOURNAL OF EDUCATION

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/oje>



STRUCTURE AND SIGNS OF INFORMATION ATTACK IN THE GLOBALIZED INFORMATION SPACE

Jakhongir E. Aliyev

basic doctoral student

Tashkent State Oriental University

Tashkent, Uzbekistan

Email: aliyejahongir2330@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: information war, information space, disinformation, intelligence war, information security;

Received: 20.04.24

Accepted: 22.04.24

Published: 24.04.24

Abstract: This author's article analyzes the global attack and its types, media, classification and methods of information warfare, and implementation mechanisms.

GLOBALLASHGAN AXBOROT MAKONIDA AXBOROT XURUJINING TUZILISHI VA BELGILARI

Jaxongir E. Aliyev

tayanch doktarant

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Email: aliyejahongir2330@gmail.com

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so'zlar: axborot urushi, axborot makonini, desinformatsiya, razvedka urushi, axborot xavfsizligi;

Annotatsiya: Ushbu muallif tomonidan maqolada globallashgan axborot makonida axborot xuruji va uning turlari, shuningdek, axborot urushining tasnifi va usullari hamda amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilindi

СТРУКТУРА И ПРИЗНАКИ ИНФОРМАЦИОННОЙ АТАКИ В ГЛОБАЛИЗИРОВАННОМ ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ

Джаконгир Э. Алиев

базовый докторант

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: aliyejahongir2330@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: информационная война, информационное пространство, дезинформация, разведывательная война, информационная безопасность;

Аннотация: В статье данного автора проанализированы информационная атака и ее виды в глобализованном информационном пространстве, а также классификация и методы информационной войны и механизмы реализации.

KIRISH

Bugungi kunda “globallashuv” so‘zi eng ko‘p ishlatiladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, ushbu tushuncha inson va jamiyat hayoti rivojining hozirgi davridagi muhim xususiyatlarni, jumladan, tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan, kishilik sivilizatsiyasi bugungi kungacha boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o‘ta shiddatli va murakkab bir voqelikni o‘zida mujassam etadi.

Ayni paytda, kishilik jamiyati rivojida ustuvor bo‘lib borayotgan mayllardan kelib chiqiladigan bo‘lsa, insoniyatning istiqbolini ham tasavvur qilish imkonini beradi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar hukmron bo‘lgan davrda dezinformatsiyaning tarqalishi global muammoga aylandi.

Axborot xuruji - bu aldash, manipulyatsiya qilish yoki jamoatchilik fikri, idrok yoki xatti-harakatiga ta’sir qilish maqsadida yolg‘on yoki chalg‘ituvchi ma'lumotlarni tarqatish uchun ataylab va muvofiqlashtirilgan harakatdir.

Ushbu jarayon yangi hodisa emas va tarix davomida siyosiy, mafkuraviy va strategik maqsadlarda foydalanilgan. Biroq, internet va ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo‘lishi dezinformatsiya manzarasini o‘zgartirib, uning ta’siri va ta’sirini kuchaytirdi. Davlat ishtirokchilari, siyosiy faollar, ekstremistik guruhlar va turli kun tartibiga ega shaxslar global miqyosda dezinformatsion kampaniyalarni tashkil qilish uchun onlayn platformalarning ochiqligi va anonimligidan foydalanadilar.

ASOSIY QISIM

Axborot xurujiga berilgan turlicha ta’riflar mavjud. Rossiyalik ayrim mutaxassislarining fikricha axborot xuruji bu - raqib ustidan axborot hukmronlikka erishish va shuning evaziga unga moddiy, mafkuraviy yoki boshqacha zarar yetkazish uchun davlatning harbiy kuchlari, hukumati hamda xususiy tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar va operatsiyalar majmuasidir.

Hozirgi kunda amalga oshirilgan va oshirilayotgan axborot xurujlarining asosiy maqsadi – davlat va xalq o‘rtasida ishonchsizlikni, aholida shubha, ikkilanish, parokandalik, tartibsizlikni keltirib chiqarishdir.

XXI asrda axborot urushinig o‘ziga xos jihatni urush vositalari, uslublarining ko‘paygani, takomillashganida ko‘rinadi. Bugungi kunda bunday urush internetda, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar orqali ham olib borilmoqda

Axborot texnologiyalari yordamida harbiy va boshqa mojarolarni olib borish taktikasi o‘zgardi. Axborot va dezinformatsiya kimning qo‘lida ekanligi va qanday maqsadda ishlatalishiga qarab xavfli qurolga aylanadi. Axborot yordamida inson ongiga ta’sir o‘tkazishga urinishlar N.Makiavelli (“Hukumdor”) yoki Sun Tszi (“Urush san’ati”) asarlarida kuzatilishi mumkin. Har qanday vaqtda yuqori sifatli ma'lumot to‘plash va dushmanni yo‘ldan ozdirish qobiliyati doimo qadrlangan. O‘zining rivojlanishining dastlabki bosqichida axborot urushi qurolli to‘qnashuvning hamroh qismi bo‘lib, uning maqsadi hududlarni egallab olish edi. Hozirgi vaqtda axborot urushi ko‘pincha "issiq" qarama-qarshilikdan ajralib turadi va ustun mavqeni egallaydi.

Amerikalik harbiy mutaxassis Tomas Ron birinchilardan bo‘lib "axborot urushi" tushunchasini kiritdi. Ushbu atama harbiy sohada faol ishlatalgan, ammo ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan u biroz boshqacha ma'noga ega bo‘ldi.

Axborot urushining tasnifi va usullari Martin Libicki axborot urushining yetti turini belgilaydi:

Buyruq va boshqaruv - buyruq va ijrochi o‘rtasida o‘rnatilgan aloqadan nazoratni mahrum qilish maqsadini qo‘yadi.

Razvedka urushi - hujum va o‘zini himoya qilish uchun qimmatli ma'lumotlarni to‘plashni o‘z ichiga oladi.

Elektron urush - maqsad barcha elektron aloqalarni o‘chirishdir.

Psixologik urush - aholini tashviqot va axborot zombi qilish.

Xakerlar urushi - buzg‘unchilik va har qanday ma'lumotlarga kirish (elektron pochta, bank kartalari, shaxsiy fayllar, yozishmalar va boshqalar) va ulardan ruxsatsiz foydalanish.

Iqtisodiy urush - axborot blokadasi (tijorat faoliyatini cheklash) yoki axborot imperializmi (siyosiy axborot hujumi).

Kiber urush - kompyuter ma'lumotlarini qo‘lga kiritish, ob'ektni kuzatish, axborot texnologiyalariga tayanadigan infratuzilma faoliyatini buzishga qaratilgan.

Ta’sir qilish ob’ekti Zamoniaviy dunyoda milliy resurslarni va ma'lumot almashish sirini himoya qilish zarurati mavjud, chunki bu ma'lumotlar davlatlar o‘rtasida siyosiy va iqtisodiy nizolarni keltirib chiqarishi va oxir-oqibat xalqaro munosabatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda o‘z geosiyosiy va geoijtisodiy manfaatlariga erishish, xalqaro maydonda yetakchilik uchun raqobat olib borayotgan kuchlar tarafidan yurtimizga nisbatan “axborot hujumi” uyuştirilayotganligini kuzatish mumkin. Bunday chiqishlar nafaqat xorijiy ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda, balki yurtimiz radio va teledasturlarida, reklama roliklarida ham bo‘lib turibdi.

Siyosatshunoslik fanidan ma'lumki, siyosat bu – kurash, manfaatlar kurashi. Qadimgi davrda davlatlararo nizolar jangga olib kelgan va ular o‘rtasidagi muammolar yechimi jang natijasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Biroq, davrlar o‘tib, “harbiy yechim” S.Xantingtonning “madaniy

raqobat”iga aylangan bo‘lsa, bugungi kunda esa bu muammo F.Fukuyamaning “g‘oyaviy-mafkuraviy qobiq”qa o‘ralgan “axborot urushi” doirasida olib borilmoqda. Miloddan avvalgi II asrda xitoylik sarkarda Sun Szi tomonidan aytilgan: “Yuz marotaba jang qilib, yuz marotaba g‘alaba qozonish g‘alabaning a’losi emas, g‘alabaning a’losi jangga kirmasdan turib dushmanni mahv etishdir” g‘oyasi davrning dolzARB masalasiga aylanib bormoqda.

Axborot urushi globallashuv jarayonining mahsuli bo‘lib, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, turfa xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini aytish o‘rinli. Albatta, bugungi kun uchun bu holat yangi emas. Insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan qudratli shaxslar harbiy aslahalardan ming chandon ustun turgan “axborot quroli”dan samarali foydalanib kelganlar. Ta’kidlash joizki, mazkur yo‘nalishdagi izlanishlar xorijiy mamlakatlarning qator aqliy markazlarida XX asrning 60-yillaridayoq boshlangan. Birlashgan Qirollik Bosh vaziri Uinston Cherchillning: “Haqiqat o‘z shippagini kiyguniga qadar, yolg‘on butun dunyoni kezib chiqishga ulguradi” iborasi aynan axborot urushining mazmunini belgilab beradi.

Bugungi kunda mintaqaga va yurtimizga qarshi qaratilgan “axborot quroli”dan foydalanish ko‘lami tobora ortib bormoqda. Ma’lumki, “Axborot urushi” harbiy xatti-harakatlarga nisbatan juda arzon bo‘lib, u yadro qurolidan ham qudratliroq kuchga ega. Ya’ni, axborotga ega shaxs har qanday jarayonni nazorat qila olishi va undan o‘z maqsad va manfaati yo‘lida samarali foydalana olishi imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Bu kurashning ob’yekti ham, sub’yekti ham Inson sanaladi. Ayrim davlatlar tomonidan ilgari surilayotgan konsepsiya va doktrinalarda “insonlardagi ijtimoiylashuv g‘oyalarini yo‘qotish zarur”ligi ochiqdan-ochiq aytildi.

Siyosatshunoslarining fikrlariga ko‘ra axborot urushining vazifalari quyidagilardan iborat: 1. Sof mafkuraviy ta’sir o‘tkazish; 2. Mamlakat aholisiga noto‘g‘ri ma’lumot berish (davlat va hukumat rahbarlariga ishonchsizlik uyg‘otish, davlat siyosatining ayrim yo‘nalishlariga norozilik kayfiyatlarini tug‘dirish, rasmiy targ‘ibot va axborot manbalari va kanallariga ishonchni yo‘qotish); 3. Fuqarolarga psixologik bosim o‘tkazishga urinish (mish-mishlarni tarqatish, nosog‘lom kayfiyat tug‘dirish, turli ijtimoiy guruqlar orasida dushmanona kayfiyatlarni – millatchilik, ratsizm, diniy ekstremizm va fanatizmni yuzaga keltirish). Axborot urushi odamlarni boshqarishga imkon beradi, ammo jamiyat bu ma’lumotlarning ta’siriga berilsagina.

XULOSA

Axborot xurujlariga qarshi kurashda kurashning tizimli bo‘lishligi, uning zarur huquqiy bazasi shakllantirilganligi o‘ta muhim. Shu bois axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan alohida qonun hujjati qabul qilish masalasi ko‘rib chiqilishi kerak.

Shu bilan birga, bunday xurujlarga qarshi kurashda quyidagilar muhim:

1. Axborot makonini mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, o‘zgarishlar, aholining qiziqishi yuqori bo‘lgan masalalar haqidagi obyektiv va pozitiv axborot bilan doimiy ravishda to‘ldirib borish.

2. Fuqarolarimizda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan kompleks choralar ko‘rilishi kerak. Xususan yoshlарimizni tafakkur qilishga, har qanday axborotni tahlil qilib so‘ng xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz zarur.

3. Mamlakatimiz, davlat apparati, rahbarlar haqida noto‘g‘ri ma’lumotlar, tuhmat, uydirmalar, buzilgan axborot tarqatuvchi har qanday axborot vositalari faoliyatiga qonun doirasida chek qo‘yish.

4. Aholiga chet ellarda turib mamlakatimiz to‘g‘risida noto‘g‘ri, bir taraflama axborot tarqatuvchi axborot vositalari, shaxslarning asl qiyofasini olib beruvchi axborotni yetkazish.

5. Milliy g‘oya, mafkura, ma’naviyat tushunchalari, shu jumladan fuqarolarimizning vatanparvarligi axborot xurujlariga qarshi muhim omillardir. Bu yo‘nalishda amalga oshirayotgan ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Pennycook, G., & Rand, D. G. (2021). Fighting misinformation on social media using crowdsourced judgments of news source quality. *Proceedings of the National Academy of Sciences*, 118(14), e1921745118. [DOI: 10.1073/pnas.1921745118]
2. Guess, A., Nyhan, B., & Reifler, J. (2020). Exposure to untrustworthy websites in the 2016 US election. *Nature Human Behaviour*, 4(5), 472-480. [DOI: 10.1038/s41562-020-0850-3]
3. Wardle, C., & Derakhshan, H. (2017). Information disorder: Toward an interdisciplinary framework for research and policymaking. Council of Europe report. [Available online: <https://rm.coe.int/information-disorder-toward-an-interdisciplinary-framework-for-research/168076277c>]
4. Tandoc, E. C., Lim, Z. W., & Ling, R. (2020). Diffusion of disinformation: How social media users discern fact from fiction. *Journalism Practice*, 14(7), 832-846. [DOI: 10.1080/17512786.2020.1800480]
5. DiResta, R., Shaffer, K., & Ruppel, E. (2020). The tactics and tropes of the Internet Research Agency. Oxford Internet Institute report. [Available online: <https://comprop.ox.ac.uk/wp-content/uploads/sites/93/2019/10/Tactics-and-Tropes-of-the-Internet-Research-Agency.pdf>]
6. Ward, J. K., & Lancellotti, E. (2020). Cybersecurity and disinformation: A comprehensive analysis. *Journal of Cybersecurity*, 6(1), tyz010. [DOI: 10.1093/cybsec/tyz010]
7. European Commission. (2021). EU Code of Practice on Disinformation. [Available online: <https://ec.europa.eu/digital-single-market/en/news/eu-code-practice-disinformation>]
8. Nielsen, R. K., & Graves, L. (2017). News you don’t believe: Audience perspectives on fake news. Reuters Institute for the Study of Journalism report. [Available online: <https://reutersinstitute.politics.ox.ac.uk/news-you-dont-believe-audience-perspectives-fake-news>]